

MINTAQAVIY TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNNING IQTISODIY SIYOSATI

Bahodirov Shohruh

SamDU Kattaqurg'on filiali

"Biznesni boshqarish" kafedrasi assistenti

E-mail: @gmail.com

Usmonov Ixtiyor

SamDU Kattaqurg'on filiali

Buxgalteriya hisobi 22-04 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqada turizm faoliyati rivojlanishi, davlatnning iqtisodiy siyosati, Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratishdagi ahamaiyati, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turizm, Dunyo iqtisodiyoti, Rivojlanish, Mintaqaviy Turizm, Turizm konsepsiysi, Innovatsiyalar indeksi.

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotida o`z o`rniga ega bo`lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Avvallari turizmga aholining sayohat qilishi va dam olishini ta'minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaralgan bo`lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog`i sifatida shakllanib, rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Turizm inson hayoti va faoliyatining ko`p sohalarini qamrab oladi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o`ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo`jaligi, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa shu kabi muhim sektorlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatadi.

Bugun butun dunyo nazari yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettila ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga qaratilgandir. Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlari zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bag'ishlangan uchinchi ustuvor yo'nalishida raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 marta, ularning eksportini esa 10 marta oshirib, 500 mln. dollarga etkazish vazifasi qo'yilgan. Ushbu

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

vazifalardan kelib chiqgan holda kelgusi besh yilda turizm xizmatlarini kamida 5 barobarga oshirish kabi aniq maqsadlar kelirilganligi ushbu mavzuning dolzarbli belgilaydi.


Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikasiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta’minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, turizmni iqtisodiyotimizning eng muhim tarmog‘iga aylantirish, yurtimizning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ‘ib qilishga qaratilgan qator hukumat qarorlari va dasturlari qabul qilindi.


Hududlarda turizmni rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5611 sonli farmoni bilan “Turizm konsepsiysi“ qabul qilingan bo‘lib unga ko‘ra, turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzARB ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikasiyasini va rivojlanishini ta’minalash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan amaliy vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishni oshirishda sohada innovatsiyalarni qo‘llash hamda ularni rivojlantirish orqali mintaqalarning turistik jozibadorligini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Juhon amaliyatida Innovatsiyalarni rivojlanganlik darajasini ko‘rsatadigan ko‘rsatkich (Innovatsiyalar indeksi) mavjud bo‘lib, u orqali mamlakatda milliy iqtisodiyotning innovatsion faoliyatga rivojlanishiga imkon beruvchi elementlarini qamrab oladi. Bular jumlasiga: institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, bozorning murakkabligi, bilim va texnologiya natijalari, ijodiy natijalar hamda biznesning murakkabligi kabilardir. O‘zbekistonda Global Innovatsion indeksini tahlil etadigan bo‘lsak, 0-100 oraliqdagi natijalardan quyidagicha holat aks etadi



1-chizma. O'zbekistonda Global Innovatsion indeksning o'sish tendensiyalari¹

O'zbekiston bo'yicha o'rganilayotgan davrda o'rtacha ko'rsatkich 25,13 ballni, eng kam ko'rsatkich 2013 yilda minimal 20,9 ball va eng yuqori ko'rsatkich esa 2021-yilda 27,4 ballni qayd etgan. Taqqoslash uchun, 2021-yilda 132 ta davlat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 34,30 ballni tashkil etgan. Demak O'zbekiston sharoitida innovatsiyalarni rivojlantirish borasida qilinishi kerak bo'lgan vazifalar ko'p ekanligini ko'rsatib beradi. Bu holat turizm sohasi uchun ham o'rinni sanaladi. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning ko'plab tarmoq (transport, kommunal, joylashtirish, sug'urta, bank-moliya, xavfsizlik, ta'lim, ekologiya va h.k.) larini qamrab olganligi ularda amalga oshiriladigan o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligi turizm sohasiga tegishli hisoblanadi.



2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

O‘zbekiston Respublikasida 2007-2019 yillarda turizm sohasiga kapital qo‘yilmalar hajmi dinamikasi [3] (mlrd. so‘m nominal narxda)

Birgina 2007 yildan 2019 yilgacha bo‘lgan davrda turizm sohasiga sarflangan davlat xarajatlari 16 marotaba ortib 68,8 mlrd. so‘mni tashkil qilganligi buning isbotidir.

Shuningdek mazkur davrda davlat moliyasini boshqarish tizimining taraqqiyot yo‘nalishi ham barchamizni hayratga solishi hech kimga sir emas.

Turizm ham mintaqalar iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun yetarlicha resurslarga ega.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Umuman olganda Mintaqaviy Turizm faoliyatini rivojlantirishda birinchi navbatda davlatnning iqtisodiy siyosati muhum ahamiyat kasp etadi.

Adabiyotlar:

1. <https://www.unwto.org>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. 28.01.2022 yil.
3. knoema.ru [Мировой атлас данных] маълумотлари асосида тайёрланди.
4. <https://russian.doingbusiness.org/ru/rankings>
5. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tayyorlandi.